

**SURXONDARYO VILOYATI QUMQO'RG'ON TUMANI 7-MAKTAB
BOSHLANG'ICH SINF O'QITUVCHISI**

Xolto'rayeva Zilola Bahodirovna

ona tili darsidan "Gapda so'zlarning o'zaro bog'lanishi"

mavzusidagi ochiq darsi ishlanmasi

Mavzu: So`zlarning o'zaro bog`lanishi

Sinf : 2-sinf

Mavzu : So`zlarning o'zaro bog`lanishi

Mavzuga oid tayanch tushunchalar : gap , so`z birikmasi , so`zlarning o'zaro bog`lanishi , qaysi so`zga bog`lanyapti ?

Mavzuga ajratilgan vaqt : 45 daqiqa

Mavzuning qisqacha ta`rifi : o`quvchilarga dars yakunida so`zlar o'zaro bir biriga mazmun jihatdan bog`lanadi va gap hosil qilishi tushuntiriladi . Nutq va gap haqidagi bilimlarini mustahkamlash

O`quv jarayonini amalga oshirish texnologiyasi

Dars turi: yangi bilim , ko`nikma , malakalarni shakllantiruvchi dars

Metod : suhbat , tushuntirish , mustaqil ishlash , ta`limiy o`yinlar

Jihoz: darslik , ragbatlantirish uchun kartochkalar , mavzuga oid rasmlar , multimedia ilovalar

Nazorat : o`quvchilarning xulq – atvori va darsda faolligi kuzatilib boriladi va hisobga olib boriladi .

Baholash : o`quvchilar bilimi reyting asosida baholanib , dars yakunida e`lon qilinadi .

Fanlararo bog`liqligi : o`qish , matematika, tabiat , odobnama , rasm

Darsning maqsad va vazifalari

Ta`limiy : nutqdan gapni ajratish va uni yozma shakllantirish ko`nikmasini oshirish , gap kim (kimlar) va nima (nimalar) haqida aytilgani va ular haqida deyilganini bildirgan so`zlarni aniqlash ko`nikmasini shakllantirish **K-1:** Ko`rgan lavhalaridan ma'lumotlar yig`ish; televizor, telefondan to`g`ri foydalanish

Tarbiyaviy : o`quvchilarni vatanparvarlik ruxda tarbiyalash ,o`quvchilarni odobli axloqli komil inson qilb tarbiyalash.. **K-3:Ijtimoiy faol fuqarolik**

kompetensiyasi: davlat ramzlarini bilih; sinfda va oilasida o'z o'rniga ega bo'lish; o'zidan kattalarga, o'rtoqlariga va o'zidan kichiklarga yordam berish. .

Rivojlantiruvchi : o`quvchilarning yozma nutqini oshirish **Nutqiy**

kompetensiya (tinglab tushunish, so`zlash, o'qish, yozish): O'qituvchi nutqini, video va audio (multimedia ilovalari) matnlarni va topshiriqlarni tinglab tushuna

oladi; rasmlar asosida va o'qib eshittirilgan matn yuzasidan suhbatga kirisha oladi, nutq jarayonida o'zlashtirgan yangi so'zlarni og'zaki nutqda qo'llay oladi; mashq matnidagi so'zlarni qo'shib o'qiy oladi, rasm diktant yoza oladi hamda gaplarni rasmlar tartibida ko'chira oladi.

Kutilayotgan natija :dars yakunida o`quvchilarda ona tili haqidagi bilimlari takomillashadi , mustahkamlanadi .

Dars jarayoni va texnologiyasi

Ishning nomi	Bajariladigan ish mazmuni	Metod	Vaqt
1-bosqish Tashkiliy qism	Sinfning darsga tayyorligini tekshirish ;Dars qoidalalarini eslatib o'tish o`quvchilarning diqqatini jamlash ;	Tez javob didaktik o`yin Savol javob	2 daqiqa
2-bosqich uy vazifasini tekshirish	Husnixat mashqi o`tkaziladi Uyga vazifa ta`limiy o`yinlar orqali tekshirilib mustahkamlanadi	“Ortiqchanini top “Skarabey ” “Mozaika” “Koptok “o`yini	7 daqiqa
3-bosqich Yangi mavzu bayoni	Yangi mavzu topilib e`lon qilinadi . Mavzu tushuntiriladi (slayd orqali) multimedia orqali ko`rsatiladi Darslik bilan ishslash sinf xattaxtada ishslash	“Kollaj “ o`yini multimedia ilova 318-mashq	16 daqiqa
4-bosqich Mustahkamlash	Mavzu yuzasidan savol javob o`tkazish ,test savollari orqali slayddan foydalanib tekshiladi . Tarqatma materiallar bilan ishlanadi. Dam olish daqiqasi . Yangi mavzu umumlashtiriladi.	“Sinchkov o`quvchi “ o`yini “ ta`limiy o`yini “Tomchida hayot “ o`yini Dam olish daqiqasi “Yomg`ir ” “Pinbord “ metodi	15 daqiqa

5-bosqich darsni yakunlash va baholash	O`quvchilarning darsga ishtirokiga ko`ra ballari e`lon qilinadi g`olib guruh aniqlanadi	Baholash	3 daqiqa
6-bosqich Uyga vazifa	Uy ishi tushuntiriladi	Tushuntirish	2 daqiqa

Darsning borishi**Tashkiliy qism**

Bolajonlar sog` omonmisiz

Yangi darsga tayyormisiz ?

Barchamiz sog` omonmiz

Yangi darsga tayyormiz

**O`quvchilarni darsga tayyorgarligini aniqlash, aylanma daftarlarni tarqatish,
o`quv qurollarini mavjudligini nazorat qilish**

Hozir qanday darsimiz ?

Ona tili hozir darsimiz (ona tili sheri aytildi

Darsimiz ona tili

Hamisha yodda saqlang u bizga nimalarni o`rgatadi ?

Chiziqchalar chizishni , harf va bo`g`in yozishni , ma`noli so`z yozishni , so`zlardan gap tuzishni,gaplardan matn yaratishni , insho va bayon yozishni o`rgatar ona tilim

Darsimizda mehmonlar bor , dars o`tamiz o`zgacha o`rgatamiz , o`rganamiz ustoz shogird hamkorligin darsda joriy etamiz

Guruhlarga bo`lingan bizning o`quvchilar ham

Bilimli , idrokli bo`l aql kerak har yerda

marralar zarb etishda kerakli do`sht shularda

O`quvchilar 3 guruhgaga bo`lingan

Aql**Bilim**

Idrok (Hayot cho`qqilariga erishish ko`makchilari).

Dars shiori

Ilm olish istagi biz uchun farzdir .Biz uchun doimo dars muqaddasdir .

Darsning oltin qoidalari takrorlanadi



Bolalar bugun darsimiz oddiy dars emas noodatiy darsdir . Bugun biz darsimizni Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning yoshlar ma`naviyatini yuksaltirish va bo`sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish bo`yicha 5ta muhim tashabbus yo`nalishlari topshiriqlari boyicha o`tamiz .



G`olib guruh rag`bat kitoblar bilan taqdirlanadi va hayot daraxtga ilib qo`yiladi qaysi guruh daraxtida ko`p kitoblar bo`lsa shu guruh g`olib bo`ladi .



1-Tashabbus yoshlarni musiqa, rassomlik adabiyot teatr san`atning boshqa turlariga qiziqishlarini yuzaga chiqarish

O`qituvchi murojaati

Qaysi yurtning farzandlarsiz? (O`zbekistonning)

Millatingiz ? (O`zbek)

Davlat tilingiz ? (O`zbek tili)

Vataningizni sevasizmi ? (Ha)

Unga sodiq bo`lasizmi ? (Ha)

Ofarin bolajonlar ! Shunday ekan buyuk ajdodlarni yod etaylik , pok ruhlari ni shod etaylik Bugungi husnixat mashqimizda buyuklar oldida bosh egaylik nomlarininfaxr bilan chiroyli qilib yozaylik

(slayd orqali allomalar rasmlari ko`rsatiladi)

O`quvchilarning yozganlari slayd orqali tekshiriladi .

So`ng guruh a`zolari raqam tanlashadi , o`zlariga topshiriq tanlashadi

1 Ortiqchani top



2 Mozaika



(Bo`laklarni to`g`ri joylashtirib hikmatli gapni o`qish)



3 Skarabey (narsa va shaxsni harakatini bildirgan so`zlarni to`g`ri joylashtirish va savollar bilan izohlash) G`olib guruh rag`batlantiriladi .

2-Tashabbus yoshlarni jismoniy tarbiya, chiniqish ,sport sohalarda qobiliyatlarini namoyon qilish

4-topshiriq” Koptok” o`yini orqali shaxs va narsa belgisini bildirgan so`zlarni ketma ketlikda aytish kerak G`olib guruh rag`batlantiriladi

3-Tashabbus yoshlarni internet kompyuter texnologiyadan to`g`ri foydalanish

5-topshiriq “**Kollaj** “o`yini (joylashtir ma`nosi) Yangi mavzuni topish uchun sonlarni o`sib borish tartibida qo`ysa mavzu nomi kelib chiqadi.



Yangi mavzu

Yangi mavzu tushuntiriladi (slayd orqali ko`rsatib boglanish chizmasi ko`rsatiladi . Qoida eslatiladi (So`zlar mazmun jihatdan o`zaro bog`lanib, gap hosil qiladi . Gapning asosini topish qoidalari tushuntiriladi)

318-mashq sharti bo`yicha bajariladi (Slayd orqali ko`rsatilib tushuntiladi 2-gapning bog`lanish chizmasi topiladi)


.Xondayliq qishlog`iga ko`chib kelganimizga ikki yildan oshdi .Qishloq mehga juda yoqdi . Atrofi tog` . Tog`lar ko`m –ko`k , jonli gilam bilan to`shalganday.



4-Tashabbus yoshlarni ma`naviyatini yuksaltirish kitobxonlikni targ`ib qilish

Yangi mavzuni mustahkamlash

6-topshiriq yangi mavzuni tekshirish maqsadida “**Sinchkov o`quvchi** “ ta`limiy o`yinidan foydalaniladi . Unda slayd orqali test beriladi o`quvchilar belgilaydilar , so`ng yonidagi o`quvchi bilan almashadi . Slayd orqali tekshiriladi . G`olib guruh rag`batlantiriladi



5-Tashabbus ayollarni ish bilan ta`minlash


7-topshiriq “**Tomchida hayot** ”didaktik oyinidan foydalaniladi

So`zlarni o`zaro bog`la

bino

ozod

obob



Qishloq


Tabiat



O`quvchilar tomchi bilan gullarni sug`orib onalariga sovga` qilishadi

8-topshiriq **Dam olish daqiqasi** o`tkaziladi. Bunda “Yomg`ir” she`rdan harakatlari bilan foydalaniladi .

9-topshiriq Ona tili mavzularini mustahkamlash maqsadida “**Pinbord**” metodidan foydalaniladi Savollar beriladi javoblar umumiylashtirilib sinf doskasida xulosalanadi. (Ona



tili so`zi kelib chiqadi .

Dars so`ngida 5 ta tashabbus topshiriqlarini bajarib ular “Orzular maktabi”ni barpo etishadi.

Bunda 5 ta tashabbus uning ustunlari bo`lishadi Maktab bog`iga kitoblar daraxtini

qo`yishadi

Dars yakunida g`olib guruh aniq lanadi (daraxtdagi kitoblar sanaladi)va ragbatlantiriladi (g`olib guruhga kitoblar beriladi)

Darsda faol bo`lgan o`quvchilarga nishonlar beriladi



Uyga vazifa 319-mashq sharti tushuntiriladi . Iqtidorli o`quvchilarga 3 ta undan ortiq bo`lgan gapdan iborat “Yoz ”mavzusida matn yaratish bo`ladi .